

2025-yil – “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” IJODIY PARVOZ



O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTINING MA'NAVIY-MA'RIFIY,
ILMIY, IJTIMOIIY GAZETASI

2025-yil noyabr № 11 (150) dismi.uz nashriyot@dismi.uz t.me/dismi_uz



DAVLAT BAYROG'I QABUL QILINGAN
KUN MUBORAK BO'LSIN!

O'ZBEKISTON BAYROG'I – *mustaqillik timsoli*

O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i – milliy davlatchiligimizning asosiy ramzlaridan biri bo'lib, mustaqillik va tarixiy o'zlikning yorqin ifodasidir. Bayroq nafaqat davlat atributi, balki xalqning ma'naviy merosi, qadriyat-lari, orzu-intilishlari va kelajak sari qat'iy qadamlarining ramziy timsolidir. Bugungi kunda yoshlar ongida milliy o'zlikni shakllantirish va mustahkamlash jarayonida bayroqning o'rni beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Yosh avlodning milliy o'zligini shakllantirishda ramzlarning, ayniqsa bayroqning ta'siri katta. Psixologiya va sot-

siologiya fanlari bo'yicha tadqiqotlarga ko'ra, davlat ramzlari orqali insonlarda jamoaviy o'zlik, madaniy qarashlar va

vatanparvarlik hissi kuchayadi. O'zbek yoshlari uchun bayroq: mustaqillikning ramziy isboti, millatning tarixiy ildizlari va davomiyligi, zamonaviy davlatning xalqaro maydondagi obro'si, vatanga bo'lgan sadoqat tuyg'usini shakllantiruvchi kuchli ma'naviy omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bayroqning ranglari-dagi chuqur ma'nolar yoshlarga tarixini anglash, milliy g'urur va mas'uliyatni kuchaytirishga yordam beradi.

O'zbekiston bayrog'ining har bir unsuri nafaqat estetik, balki ilmiy va ma'naviy

GULCHEHRA MUFTI-ZADE,
“San'atshunoslik va
madaniyatshunoslik”
kafedrası katta o'qituvchisi

mazmunga ega. Aynan shu sifatlar yoshlar ongida bayroqni milliy o'zlikning kuchli timsoliga aylantiradi.

Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi. Timsollar tilida bu – yaxshilik, donishmandlik, halollik, shon-shuhrat va sadoqatni anglatadi. Moviy rang turkiy xalqlar madaniy merosida ilohiy kenglik, sadoqat va barqarorlik belgisi hisoblanadi. Psixologik tadqiqotlarda moviy rang insonda ishonch, osoyishtalik va qat'iyat hissini uyg'otishi isbotlangan.

Oq rang – ma'naviy poklik va halollik timsoli. U milliy mentalitetimizda adolatga intilish, nur va ezgulik g'oyalarini uyg'otadi. Yoshlar ongida oq rang toza maqsadlar, adolat tamoyili va ma'naviy yuksalish ramzi sifatida mustahkamlanadi.

Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi. O'zbekistonning boy tabiatini, qishloq xo'jaligi madaniyatini va ekologik uyg'unlikni ifodalaydi. Bu rang yoshlarni tabiatga mehr, yangilanish va kelajak sari intilish ruhida tarbiyalaydi.

Bayroqdagi qizil chiziqlar – vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi. Hayot energiyasi, tarixiy jara-yonlarning izchilligi va zamonaviy rivojlanishning uzviyligini bildiradi. Ular yosh avlodga o'zgarishlar sari qat'iyat bilan harakat qilish g'oyasini singdiradi.

Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. Ayni paytda u qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzi bo'lib, o'sish, yangilanish va barkamollikni ifodalaydi. Bu belgi yoshlar ongida milliy meros va zamonaviy taraqqiyot uyg'unligini mustahkamlaydi.

Davomi 3-betda ➔

O'ZBEKISTON TEATRLARI BOSHQARUVIDA YANGICHA QADAM

Teatr hayotiy voqea-hodisalarni, turli kurashlar va ichki kechinmalarni dramatik xatti-harakatlar orqali insonlarga ko'rsatib beruvchi ko'zgudir. Teatr yaratilganiga necha asrlar bo'lgan bo'lsa-da, hali-hamon o'z shakl-shamoyilini saqlab qolgan. Teatr haqida so'z borar ekan, Usmon Azim o'z fikrlarini qisqa, ammo, keng tasavvur bilan ifoda qilgan:

*Teatr, eng yorug' tilaksan, azizim,
Teatr, yuksaksan, yuksaksan, azizim.
Qalbinga nur bergan yorug' ziyosan,
Hayotdan go'zalsan, eng go'zal dunyosan!*

Ushbu satrlarda teatrga bo'lgan cheksiz mehr, ehtirom, hurmat mujassam. Darhaqiqat, teatr qalblarga nur bag'ishlabgina qolmay, insonlarga hayotning achchiq-shirin ta'mlarini bir lahzada tatishga ko'mak beradi.

XIX asrning 70-yillarida Toshkent va Qo'qon shaharlarida havaskor teatr truppalari shakllana boshlagan. XX asrning 10-yillarida birgina Milliy akademik drama teatri faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, bu ko'satgich 42 nafarga yetdi. Teatrlarimizda Mannon Uyg'ur, Abror Hidoyatov, Olim Xo'jayev, Toshxo'ja Xo'jayev, Saodat Rahimova, Yoqub Ahmedov kabi san'atimiz darg'alarining nomlari abadiyatga muhrlangan. Ular yillar davomida teatr san'ati rivoji uchun tinim bilmay mehnat qilganlar. Bugun teatrlarimiz oldida katta ma'suliyat, samarali mehnat va zamonaviy boshqaruv tizimiga o'tish masalasi turibdi.

Davomi 3-betda ➔

Bugungi
sonda:

SAN'ATGA BAXSHIDA UMR

O'sha kezlardagi O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Baxtiyor Sayfullayev: “Yosh tomoshabinlar teatri deganda seni tushunamiz. Nimaga sen ishlamasliging kerak? ishga loyiqsan”, – deb Yodgora opani ishga qaytishiga sabab bo'ladi. “O'shanda bu kimlarga dir yoqdi, kimlarga dir yoqmadi. Undan keyin Yaratganning nazari va marhamati bilan unvonlar ola boshladim. Shukurki, yorug' kunlar ham kela boshladi.

AXBOROTGA ONGLI YONDASHUV

“News Media Finland” loyihasi menejeri Susanna Ahonen: “Biz har bir avlodni qayta-qayta o'qitishimiz kerak. Garchi biz dunyodagi eng yaxshi bo'lsak ham, agar biz uning ustida doimiy ravishda ishlamasak, bu saqlanib qolmaydi. Bu abadiy loyiha”, – deya ta'kidlaydi.

MADANYAT VA SAN'AT BOSHQARUVIDA YOSH RAHBAR KADRLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Asosiy talablar: faol boshqaruv qobiliyati, ochiq va haqqoniy muloqot o'rnatish, xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishda faollik, kasbiy bilimlarning chuqurligi, xorijiy tillarni bilish, xalqaro tajribani o'rganish, kommunikativ ko'nikmalar va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish.

“BAXTSIZ KUYOV” ASARI HAQIDA

Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” fojiali asari dramaturgiyadagi yuksak mahoratini ko'rsatadi. Ayniqsa, davrdagi og'riqli illatlardan biri bo'lgan to'y marosimining salbiy oqibat-lari, maishiy muammolarni ko'rsatish bilan yoritiladi.

➔

➔

➔

➔

Ijodkorlarning taqdiri shu qadar ajib va fusunkorki, xuddi umr yo'llarida hech qanday mung, g'am-qayg'u va tashvish yo'qdek tuyiladi. Aslida, tabiatning o'zi-o'ziga bo'ysunmay to'rt fasli bo'lgani kabi insonlarning ham bolalik davri – bahor, balog'at davri – yoz, o'ychilik va ro'zg'or davri – kuz, qarilik davri – qish singari mavridlari bor. Ular bir zumda o'tadi-ketadi. Kimdir ilg'aydi, kimdir ming o'ychan xayol bilan xuddi yashamagandek umr yo'lini chizib ketaveradi. Ba'zi san'atkorlar borki, ularning xuddi oilasi, o'yi, ruzg'ori yo'g'-u, hayotining to'rt fasli ham faqat ijod atalmish olamda o'tgandek...



DILNOZA QURBONOVA,
“Tahririyat va nashriyot”
bo'limi xodimi

Yoshligidan ota mehrsiz o'sib, sevimli yoridan mehr ko'rgan aktrisa ayriliq dog'iga chiday olmaydi. Yodgora opa bu ko'rgilikdan keyin olti oy kasallanib yotib qoladi. Ichki ustunlari unga dosh bermas, endi yolg'iz sirdoshi qaro yer bo'lib qolgandi. Endi uch nafar farzandning ust-boshi, yegulik-ichgulik, bordi-keldisi shu ayol jus-sasiga tushdi. Bu ham bir hayotning fasli ekan-da. Aktrisa o'sha paytlar malham bo'lib, yordam beradigan odam ham kam topilardi. Aksiga olib, ko'proq dublyor roli berilar, “yangi chehra kerak”, deb uni sahnadan sekin tushirib yuborishga harakatlar bo'lgan. “Sen shu rolning pastda turib ko'rgin, hozir boshqasi o'ynaydi, degandi rejissyor. Shunday qilib sekin-sekin orqaga keta boshladim”, – deb xotirlaydi aktrisa. Yodgora opa shu orada o'z arizasi bilan ishdan ketadi. Chunki, san'atkorning dili xira torta boshlasa, sof ijod mahsuli yaratilmas edi. Teatr esa, faqat sof qalb, sof ijod va sof iqtidor egalari sevadi. “Dilimni og'ritishgani uchun biroz xafa bo'lganman. Keyin ishdan ketdim, ijodimda bu orada ancha tanaffus bo'ldi”, – deydi Yodgora opa biroz sukutga berilib. Lekin aktrisaning xalqimiz ko'rishni xohlaydi va biroz ko'rinmay ketsa izlay boshlaydi. Baribir Yodgora opaning xalqimiz bolalik davridagi multfilmlardan buyon qalblariga joylab bo'lgan. Yurtimiz fuqarolari uni aziz bilib, ardoqlaydi. Ishdan ketish san'atkorga ham og'ir edi. Ammo nailloj...

Kunlarning birida Yodgora opaning hayotida g'am toshi ariy boshladi. O'sha kezlardagi O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Baxtiyor Sayfullayev: “Yosh tomoshabinlar teatri deganda seni tushunamiz. Nimaga sen ishlamasliging kerak? Ishga loyiqsan”, – deb Yodgora opaning ishgacha qaytishiga sabab bo'ladi. “O'shanda bu kimlargadir yoqdi, kimlargadir yoqmadi. Undan keyin Yaratganning nazari va marhamati bilan unvonlar ola boshladim. Shukurki, yorug' kunlar ham kela boshladi. Soha rahbarlariga ham tashakkurlarim tilda emas, dilimda. Mana, hozir ichimda adolat bor ekanligini his qilib qayta ishlab kelayapman. Alloh kuch-quvvat bersa, xalqimga hali uzoq yillar xizmat qilish niyatim qalbm to'rida. 34 yillik mehnatim singgan teatrdan – sevgim, mehrim va hayotim, taqdir chiziqlarim bor. Oila qurdim, farzandlarimga non, rizq bo'ldi teatr. Yaxshi-yomon kunlarim o'tdi. Men uchun muqaddas maskanaga aylandi. Ijodkorni ijoddan, sevgan kasbidan ayro tushmasligini tilayman. Aslida, oddiygina bir aktrisa uchun sahnani qizg'anmaslik kerak. Alloh yuqtirgan iqtidor bandasi tomonidan yashirib, to'sib qo'yila olmaydi. Agar ijodkorning peshonasiga ijod qilish yozilgan bo'lsa, bu hayotining oxirgi soniyasigacha davom etishi mumkin. San'atkorning hayoti ham ijod”, – deydi qahramonimiz.

Vaqtlar o'tdi. Sevimli san'atkorimiz qad-dini tik ko'tarib, ijodinining jilokorligini tomoshabinlarga suydinib boraverdi. Shunday pallada samimiy va kamtarin Yodgora Ziyomammedovaning mehnati munosib baholanib, 1992-yil O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoniga loyiq topiladi. “Mustaqilligimizning 30 yilligi” munosabati bilan, esdalik nishoni va 2021-yil “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlandi. Eng asosiysi, u san'at olamida unga O'zbekistonning yagona travesti (teatrdagi amplua, yosh bolalar rolini o'ynashga ixtisoslashgan) aktrisasi sifatida yuksak ta'rif berilgan yagona aktrisadir.

SAN'ATGA BAXSHIDA UMR

Umrining bahor, yozi, kuziy-u qishini sahnaga baxshida etgan betakror san'atkorlarimiz ko'p. Shunday beorom va betinim san'atkorlarimizdan biri O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri, kino va professional o'zbek dublyaji san'ati aktrisasi, ustozoda tele boshlovchi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi Yodgora Ziyomammedovadir. Hozirda yetti yoshdan yetmish yoshgacha xalqimizga sevimli bo'lgan aktrisa 1952-yilning 23-aprelida azim Toshkent shahrida dunyoga keladi. Oilasida biri-biridan go'zal, latofatli to'rt opa-singilning eng kenjasi bo'lgan qahramonimiz bolalik chog'laridanoq san'atga oshufta, ijodga tashna bo'lib o'sib ulg'ayadi. Yosh bo'lishiga qaramay tabiatan ziyrak, zeharli Yodgora Ziyomammedovadagi iqtidorni ko'pchilik payqab, kelajakda uning iste'dodli san'atkor bo'lishiga ishonardi.

Yodgora Ziyomammedova san'atga shahdam qadamlar bilan kirib borishni yuragining bir chetiga tuyib boraverardi. Bir kuni qo'shnisi taniqli dublyaj aktrisasi Mukambar Rahimova undagi yorqin iste'dodni sezib, o'zi bilan dublyaj studiyasiga olib boradi. Uning badiiy va quloqqa yoqimli, o'zgacha totimli shira bilan yo'g'rilgan betakror ovozi studiyadagi mutaxassislarga yoqib qoladi. Shu bilan Yodgora opaning dublyaj san'atidagi faoliyati boshlanadi. Ilk bor milliy e'taklarimizdan “Susambil” mult-filmi tayyorlanib, multfilmdagi “Xo'roz”ga ovoz berishdan boshlangan ijod san'at-korni tom manoda xalqqa yanada yaqin va sevimli bo'lishiga zamin yaratadi. Yodgora Ziyomammedova maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, kuchli san'atkor bo'lish ilinjida 1970-yili Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutiga o'qishga topshiradi. Talaba bo'lish baxtiga muyassar bo'lgan Yodgora opa ustozlardan olgan ta'lim-tarbiyasi bilan iqtidorini mukammallashtirib, mahorat cho'qqilarini zabt eta boshlaydi. O'sha damlardan mashhur san'atkorlar e'tiboriga tushadi va butun umrini san'at zanjiri bilan bog'laydi. Mazkur maskanni 1974-yil tamomlab, yosh tomoshabinlar teatrida ish boshlaydi. Yaratgan yuqtirgan noyob iste'dod sohibasi teatr sahnasida bolajonlar uchun mo'ljallangan ko'plab spektakllarda esda qolarli obrazlarni tomoshabinlar qalbiga muhrlab, teatr sahnasida o'z dast-

xatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, ko'plab film va seriallarda ham bir-birini takrorlamaydigan rollari bilan tomoshabinlar qalbini ishg'ol etib, xalqimizning sevimli va suyuqli aktrisasiga aylandi.

Jajji multfilmsevarlar hamda yosh tomoshabinlarning ko'ngliga yo'l topish oson emas, aslida. Bunda jonini ayamadigan, izlanuvchan inson bo'lish talab etiladi. Chunki, sahna va dublyajda bola bo'lib gavdalanish uchun bolalardek pok va beg'ubor qalb sohibasi bo'lmoq kerak. Zero, bolalarni aldab bo'lmaydi. Bu esa aktyordan juda katta mahorat, kuch talab qiladi. “Dublyajda shunday har bitta obrazga kirib borish, bolalarcha zavq-u shavqqa berilish talab qilinadi”, degan edi Yodgora opa suhbatlarining birida. Uning “Qunduz boboning qissalari”dagi ovozi xalqimiz orasida haligacha afsona. Yodgora Ziyomammedovani “Qunduz boboning qissalari” multfilmiga ustози K.Usmonov taklif qiladi. Dublyaj muvaffaqiyatli bo'lib, ko'pchilikka ma'qul keladi. Mazkur multfilm aktrisa haqiqiy shon-shuhrat olib keldi. Multfilmni nafaqat yoshlar, balki kattalar ham sevib tomosha qiladilar. Shuningdek, u dublyaj sohasida yuzlab kino va multfilm qahramonlariga ham ovoz berib, o'zbek dublyaj san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Shirali ovozi shakllanishida atoqli dublyaj ustalari Hamza Umarov, Omon Abdurazzoqov, Arsen Fayzullayev, To'liqin Tojiyev, Kamoliddin Usmonov, Mukambar Rahimovalardan olgan katta ibrat maktabi va saboqlarining o'zni beqiyosligini u halichaga ta'kidlaydi.

Ustoz tanlash va maslahat olish yoshga qaramaydi. Sababi, yoshi ulug', ko'pni ko'rgan insonlar sal oldinroq qoqilgan, hayotdagi qiyinchiliklarni ko'rgan bo'lishi mumkin. Yodgora opa ustoz darajasida bo'lsa ham, hozirda ustози O'zbekiston xalq artisti Rixsi Ibrohimovadan maslahatlar, duolar olib turadi. San'atimiz darg'alari ham shogirdlaridan nasihatlarini ayamadilar. Yosh tomoshabinlar teatridagi yorqin rollari uning naqadar mahorat sohibasi ekanini so'zsiz tasdiqlaydi. U ijro etgan rollar teatr repertuarining o'lmas asarlari bo'ldi. Ayniqsa, quyidagi multfilmlar: “Qizil qalpoqcha”da – Qizil qalpoqcha, “Qasoskor Ruf”da – David, “Olov qalblar”da – Midxat, “Ali-Vali”da – Yulduz, “Kanfet-

voy”da – Oypopuk, “Rahmat kapitan”da – Nazira, “Balli uloqcha”da – Uloqcha, “Oq kema”da – bola, “Sening taqdiring”da – Malika, “Zaharli tomchilar”da – Zumradxonova, “Vafodor”da – Lyosha, “O'z uying-dasan”da – Vitya, “Shum bola”da – Shafaq, “Kel, do'st bo'laylik”da – Masha, “Ajoyib urug”da – Orzugul, “Eski juva gavroshlari”da – Mehri, “Oltin jo'ja”da – jo'ja, “Vijdon tarozisi”da – quyon, “Gavrosh”da – bola, “O'z yoringdan ayrilma”da – Ninka, “Oq bo'ri”da – kenja malika, “Yarash-yarash”da – Parizoda, “Erkatoy va Karlson”da – Karlson, “Oshiq G'arib”da – ona, “Chup qo'g'irchoq”da – buvi, “Sehrlil sandiq”da – Zumrad, Qimmat, “Shelkunchi”da – kalamush shular jumlasidandir.

Yodgora Ziyomammedovaning yigirma ikki yil davomida “Oqshom ertaklari” ko'rsatuvida ham boshlovchilik qilgani, yurtimizdagi har bir xonadonning a'zosiga aylantirdi. Aktrisamiz kinematografiya sohasidagi yorqin rollari bilan ham dovruq qozondi. 1994-yil Isamat Ergashev rejissyorligidagi (Sharof Boshbekov asari asosida) “Tilla bola” komediyasida – Salomat obrazi bo'lgan. Bu kino san'atidagi ilk roli bo'lishiga qaramay, kinoshunoslar obrazga ijobiy baho berganlar. “Ammo yosh oilali bo'lganim sabab kinoga uncha hushim bo'lavermadi. Ko'proq oilaning bag'rida bo'lib, farzandlarimga onalik mehmimni berishni niyat qildim”, deydi aktrisa. Keyinchalik, 2011-yildan “Qaldirg'ochlar yana qaytadi” teleserialida Zuhra xola, “Tutash taqdirilar”da o'qituvchi, Andrey Arfinning “Hayot pillapoyalari” va “Kuch birlikda” bolalar uchun birinchi milliy fantastik teleserialida rollar ijro etadi. Shu bilan birga, xalqimiz miriqib tomosha qiladigan “O'talar so'zi”, “Buni hayot deydi” kabi telenovella ham hayotining bir necha faslini baxshida qilgan.

Qahramonimiz Yodgora Ziyomammedova o'zining hamkasbi, yosh tomoshabinlar teatri aktyori Shuhrat Ziyomammedov bilan oila quradi. Ular turmushlari davomida ikki qiz va bir o'g'il farzandli bo'lishadi. Har bir insonning ibtidosi va intihosi bo'lgani kabi, Shuhrat aka ham kutilmaganda baxtsiz hodisa tufayli bu yorug' olamni tark etadi. Mudhish voqea paytida Yodgora opa ham turmush o'rtog'ining yonida edi...

O'ZBEKISTON BAYROG'I – *mustaqillik timsoli*

◀ Boshlanishi 1- betda

Yulduzlar barcha uchun ruhoniyl, ilohiy timsol sanalgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an'analimiz, qadimgi yilnomamizga bevosita aloqador. Bu O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida nujum ilmi taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi.

Davlat bayrog'idagi 12 yulduz tasvirini o'zbek xalqi madaniyatining qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

O'zbekiston bayrog'i yoshlarning vatan-parvarlik tuyg'ularini kuchaytiruvchi eng muhim tarbiyaviy vositadir. Bayroqning millat hayotidagi roli faqat ramziy yoki estetik jihatdan emas, balki psixologik, ijtimoiy va motivatsion jihatdan ham

o'rganiladi. Bayroqning uch asosiy jihati – millatni jipslashtirish, birlashtirish va safarbar etish – ilmiy va nazariy asoslarda tahlil qilinganda, bayroqning jamiyatdagi shaxslarni milliy birlik ramzi sifatida birlashtirishini ko'ramiz. Aslida, odamlar bir-birini shaxsan tanimasalar ham, o'zlarini bir jamiyatga, bir millatga mansub deb tasavvur qiladilar.

Milliy identitetni shakllantiruvchi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bayroq odamlarning o'zini millat a'zosi sifatida his qilishini kuchaytiradi. Milliy bayramlar va sport musobaqalarida bayroqning mavjudligi ishtirokchilarda milliy birdamlik hissini oshiradi. Masalan, Olimpiada marosimlarida sportchilar bayroqni ko'tarib, milliy faxrni namoyish etadilar va tomoshabinlarda milliy birlashuv hissi paydo bo'ladi. Shuningdek, turli milliy mustaqillik harakatlarida bayroq millatni

jipslashtiruvchi simvol sifatida ishlatilgan. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishish jarayonida milliy bayroq millatni yagona maqsad sari jipslashtirishda muhim rol o'ynadi.

Bayroq turli etnik, diniy va ijtimoiy guruhlarini umumiy maqsad atrofida birlashtiradi. Bu jarayonda bayroq millatni birlashtiruvchi vosita sifatida ishlaydi. Milliy bayramlar va rasmiy tadbirlarda bayroqning mavjudligi guruhlar o'rtasida ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi. Masalan, mustaqillik kunlarida o'tkaziladigan tantanalar va madaniy tadbirlar bayroq orqali millatni birlashtiradi. Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy ramzlar, xususan bayroq, odamlar orasida ijtimoiy identitetni mustahkamlash va guruhlarining birlashuvini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bayroq ramzi nafaqat birlik, balki

harakat va faollik ramzi hisoblanadi. Bayroq millatni bir maqsadga safarbar qiluvchi vosita sifatida ishlatiladi. Harbiy, sport yoki siyosiy tadbirlarda bayroq namoyishi ishtirokchilarni faollikka undaydi va milliy ruhiyatni oshiradi. Masalan, harbiy paradlarda bayroq askarlar uchun motivatsion kuch sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, mustaqillik harakatlari, inqilobiy jarayonlar va milliy harakatlarda bayroq safarbar etuvchi vosita bo'lgan. Bu ramz ishtirokchilarni maqsad sari birlashtirib, faol harakatga undagan.

Demak, bayroq nafaqat davlat ramzi, balki millatni jipslashtiruvchi, birlashtiruvchi va safarbar etuvchi kuchli ijtimoiy vosita hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bayroq psixologik va sotsiologik nuqtayi nazardan milliy birlik va identitetni mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu jihatdan, bayroqni milliy tarbiya, siyosiy va madaniy faoliyatda samarali vosita sifatida ishlatish muhimdir. Shu o'rinda muhim tavsiya: milliy ramzlar, xususan bayroq, ta'lim, madaniyat va sport orqali keng joriy etilishi lozim. Bu millatni birlashtirish, identitetni shakllantirish va harakatga undashda samarali vosita bo'la oladi.

O'ZBEKISTON TEATRLARI BOSHQARUVIDA YANGICHA QADAM



◀ Boshlanishi 1- betda

Hozirgi kunda tomoshabinlar talabining o'zgarishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, yosh tomoshabinlar talablariga mos spektakllarni sahnalashtirish, qolaversa, teatrning ixlosmandlari uchun "Oltin kursi" loyihalarini o'tkazish, soha rivoji uchun munosib turtki bo'la oladi deb o'ylayman.

O'zbekiston teatrlari ko'p yillardan beri xalqning ruhiy hayoti, ma'naviy tarbiyasi va madaniy saviyasida o'chmas o'rin egallab keladi. Biz tomoshabin sifatida sahnadagi ijodga mahliyo bo'lamiz, ammo har bir spektakl ortida qanday boshqaruv, qanday mehnat borligi ko'p hollarda ko'zga tashlanmaydi. Aslida, bugun teatrlar oldida eng katta masala ijodiy jarayonni zamon talabi bilan uyg'unlashtirish, boshqaruvni modernizatsiya qilishdir. O'zbekiston teatrlari uchun zarur bo'lgan mutaxassislar teatr menejeri, marketolog, prodyuser, mobilograflar yo'q. Teatr rahbarlarining aksariyati ijodkorlardan tayinlanadi. Albatta, ijodiy qarashlar muhim, ammo bugungi teatr uchun bu yetarli emas. Bundan o'n yillar oldin rejissyor va badiiy rahbarlar teatr boshqaruvida faoliyat yuritishgan bo'lsa, bugun ushbu tizimda talab yanada kuchaymoqda. Jumladan, marketing, PR (Pablik Relations), tomoshabin bilan ishlash, homiylar bilan muloqot, raqamli chipta, reklama strategiyasi, iqtisodiy rejalashtirish va hokazolar. Aynan shu jarayonlar teatrning bugungi muvaffaqiyatini belgilab bermoqda. Qolaversa, teatrni iqtisodiy tomondan boshqaradigan, marketingni yo'lga qo'yadigan, tomoshabin oqimini oshiradigan professional menejerlarga ehtiyojimiz katta.

Teatr menejeri faqat ijod bilan emas, balki iqtisodiy reja va strategiya bilan ham ishlay olishi kerak. Chunki moliyalashtirish tizimi eng og'riqli nuqta bo'lib, ko'plab teatrlar hali ham davlat byudjetiga tayangan holda faoliyat yuritmoqda. Bu esa, teatr faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo teatrlarining aksariyati homiylar, reklama, abonementlar orqali qo'shimcha daromad topadilar.

So'nggi yillarda teatrlar faoliyatini rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir

**"Teatr – xalqning ma'naviy ko'zguşi.
Bu maskanlarda zamonaviy ijod,
zamonaviy yondashuv bo'lishi zarur".**

Sh.MIRZIYOYEV

qancha farmon va qarorlari imzolandi. Jumladan, 2018-yil 28-noyabrda *"O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"*gi Qarori, 2020-yil 26-mayda *"Madaniyat va san'at sohasini jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi Farmoni, 2022-yil 2-fevralda *"Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"*gi Qarori va 2024-yil 22-noyabrda *"Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"*gi Qaroridir. Ayniqsa, *"Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"*gi Qarori teatr boshqaruvining rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Shuningdek, yana bir qator imkoniyatlar eshigi ochildi:

✓ **teatrshunoslik va san'atshunoslik yo'nalishi doktorantlari hamda professor-o'qituvchilarning har oyda kamida ikkita spektakl tomosha qilish va har chorakda kamida bir marotaba yangi spektakl ko'rigi va muhokamasida ishtirok etish;**

✓ **har bir teatrga teatr tanqidchilari sifatida teatrshunos, san'atshunos, dramaturglarni jalb etish;**

✓ **teatr tanqidchilari va dramaturglari klubini tashkil etish hamda har chorakda kamida bir marotaba badiiy tanqid va dramaturgiyani rivojlantirish bo'yicha davra suhbatlari, seminarlar va omma e'tiborida bo'lgan sahna asarlari muhokamasini o'tkazish.**

Ushbu qaror nafaqat teatrlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, balki ularning boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Teatrlar endi faqat ijodiy maskan emas, balki zamonaviy boshqaruv talablariga javob beradigan, marketing, PR (Pablik Relations), tomoshabin bilan muloqot va raqamli

MO'MINMIRZO XOLMO'MINOV,
"Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrasi dotsenti,
Xalq ijodiyoti fakulteti
yoshlar bilan ishlash bo'yicha
dekan o'rinbosari,
OZODA NURPO'LOTOVA,
"Madaniyat va san'at sohasi
menejmenti" mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

yechimlarni o'z ichiga olgan yirik madaniy muassasalarga aylanib bormoqda. Teatr tanqidchilining yo'lga qo'yilishi dramaturglar bilan muntazam hamkorlik, yangi spektakllarni baholash tizimining barchasi sahna san'atining sifat darajasini oshirishga xizmat qiluvchi jarayondir.

Bugungi kunda har bir teatrning muvaffaqiyati uning ijodkorlari bilan birga, boshqaruv jamoasining mas'uliyati, tashabbuskorligi va zamonaviy qarashlariga ham bog'liq. Tomoshabinlar bilan ishlashda yangicha yondashuv, yoshlar auditoriyasini jalb qilish, o'ziga xos loyihalar yaratish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zamonaviy teatr boshqaruvining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, raqamli chipta tizimi, onlayn reklama, teatrlarning ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lishi, tomoshabinlar sonining ko'payishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, har yili teatrga boradigan tomoshabinlar soni taxminan:

📈 2021-yil: – 1,6 million

📈 2022-yil: – 2,1 million

📈 2023-yil: – 2,5 million

📈 2024-yil: – 2,7 million

Statistika bo'yicha eng faol auditoriya so'nggi yillarda 16–30 yosh orasida teatrga boruvchilar soni ortganligini ko'rsatadi. Jumladan:

✓ 2020-yilda: 23%

✓ 2023-yilda: 35%

✓ 2024-yilda: 40% ga yaqinligini ko'rishimiz mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yurtimizda teatrlarga berilayotgan e'tibor san'at ahlining mehnatini qadrlash, milliy madaniyatni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida xizmat qilmoqda. Muntazam yangi spektakllarning yaratilishi, yosh aktyor va rejissyorlar uchun ochilayotgan imkoniyatlar, teatr binolarining rekonstruksiya, ularning barchasi teatrning jamiyat hayotidagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda teatr boshqaruvi an'ana va inno-vatsiya chorrahasida turibdi. Asrlar davomida milliy madaniyatimizning ajralmas bo'lagi bo'lib kelgan teatr san'ati yangi davrga qadam qo'ymoqda. Zamonaviy boshqaruv tizimining joriy qilinishi, tanqidchilik maktabining rivoji, yosh ijodkorlarning qo'llab-quvvatlanishi va davlat siyosatining izchil davom etishi, teatrlarning ertangi kunini yanada porloq qilishiga ishonchimiz komil.

AXBOROTGA ONGLI YONDASHUV

Bugungi kunda madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan media savodxonlikning jamiyatda ijtimoiy birlik va madaniy qadriyatlarni saqlashdagi rolga alohida e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, axborotdan oqilona foydalanish orqali ijtimoiy muammolarni kamaytirish va yoshlar orasida ma'naviy barqarorlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, yoshlarning axborot maydonida tanqidiy fikrlash qobiliyati, media xabarlarini to'g'ri baholash ko'nikmalari jamiyat barqarorligi va madaniy merosni himoya qilishda muhim omil hisoblanadi.

Yoshlarning axborot maydonida ongli va mas'uliyatli ishtiroki, jamiyat barqarorligi va madaniy merosni himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu borada, Finlandiya tajribasini misol qilib keltirish mumkin. Siz-u biz bilgan Finlandiya davlati ta'lim sohasida dunyoning eng oldi mamlakatlari-dan biri ekanligi hamda aholisining kitob o'qish madaniyati yuqori darajada shakllanganligini bot-bot ta'kidlaymiz. Bugungi globallashtirish davrida ayni dolzarb ahamiyat kasb etadigan ushbu soha media olamida kun sayin yangidan-yangi o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir sharoitda tinimsiz o'rganishni talab qilmoqda. Finlyandiya media madaniyatni yuksaltirish, turli yo'l-g'on axborotlarga qarshi kurashish uchun

dunyodagi eng yaxshi tizimlardan birini yaratgan davlat hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasidan tortib to o'rta maktabgacha media savodxonlik darslari kundalik ta'limning bir qismi sifatida o'tiladi va bolalarga media sarlavhalarini so'roq ostiga olish, manbalarni tekshirish, tarfakshlikni aniqlash va onlayn kontent qanday qilib chalg'itishi mumkinligini tushunishga o'rgatiladi. Ushbu darslar barcha fanlarga biriktirilgan holda amalga oshiriladi.

Finlyandiya maktablarida media savodxonligini o'rgatish uning chegarasida paydo bo'lgan dezinformatsiya bosqinini oldini olishning bir usuli sifatida baholalanadi. "News Media Finland" loyihasi menejeri Susanna Ahonen: "Biz har bir av-

lodni qayta-qayta o'qitishimiz kerak. Garchi biz dunyodagi eng yaxshi bo'lsak ham, agar biz uning ustida doimiy ravishda ishlamasak, bu saqlanib qolmaydi. Bu abadiy loyiha", – deya ta'kidlaydi. Ta'kidlash joizki, 2014-yilda media savodxonligi har qanday yoshdagi o'quvchilar uchun milliy o'quv dasturining bir qismiga aylandi. Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalar hatto o'qish yoki yozishni ham bilmaydilar, ular ommaviy axborot vositalaridan foydalanish haqida qanday fikr yuritishlari mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy. Dasturga ko'ra, yosh bolalar haqiqat va fantastikani ajratishni o'rganishlari mumkin. Masalan, ular sinfda ertaklarni o'qishlari va hikoyaning haqiqat bo'lishi mumkinligini muhokama qilishlari mumkin. Ba'zi ertaklarda ayyor odamlar yoki hayvonlar boshqalarni aldashadi. Bu yana bir saboq beradi: Siz olgan ba'zi ma'lumotlar haqiqat bo'lmasligi mumkin, ammo ular sizga zarar yetkazish uchun ishlatilmoqda kabi va hokazo.

Qator loyihalar davomida amalga oshirilayotgan ishlar ham asosan yosh avlodning ta'limiga qaratilgan. Xususan, "Me-

dia savodxonlik ABC kitobi" alifboning har bir harfini media savodxonlik ustunlari bilan bog'laydi. Qiziqarli va nodatiy dizayn o'z navbatida o'quvchini yetarlicha axborot bilan ta'minlaydi. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonni qurish yo'lida jahon tajribasidan foydalanish katta ahamiyatga egadir.

O'zbekistonda yoshlar media savodxonligini rivojlantirish yo'llari, jumladan, ta'lim tizimidagi media savodxonlikni kuchaytirish, davlat siyosati va ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, OAV va internet platformalarining rolini tushunish kabi kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar va amaliy ishlar olib borilishi juda katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston yoshlarining media savodxonligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, nafaqat yoshlarning axborot makonida faol ishtirokini ta'minlash, balki ijtimoiy birlikni mustahkamlash va madaniy qadriyatlarni saqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

E'ZOZA KARIMOVA,
"Madaniyatshunoslik"
yo'nalishi
2-bosqich magistranti

Allomalarimizning boy merosini saqlovchi

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi kutubxonasi ilm, tarix, ma'naviyat va zamonaviy texnologiyalar uyg'unlashgan yuksak maskandir.

RAVSHAN QODIROV,
ISM Kutubxona va arxiv hujjatlar bo'limi boshlig'i

Markaz kontentini boyitish doirasida 1-bosqich uchun tanlab olingan 18 ta asosiy loyiha orqali kutubxona nafaqat adabiyotlarni saqlash, balki ularni rivojlantirish, raqamlashtirish, tizimli kataloglashtirish hamda til va mintaqalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni jamlash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Mazkur kutubxona quyidagi maqsadlar bo'yicha faoliyat ko'rsatadi:

- ilmiy merosni saqlash va kelajak avlodga yetkazish;
- noyob qo'lyozmalarni raqamlashtirish;
- elektron kataloglarni shakllantirish;
- arab, fors, turk, rus va Yevropa tillaridagi tadqiqotlarni jamlash;
- kutubxonani zamonaviy texnika bilan jihozlash;
- imkoniyati cheklangan kitobxonalar uchun teng sharoit yaratish.

Qisqa qilib aytganda, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi kutubxonasi islom tarixining, Markaziy Osiyo allomalari ijodi va ajdodlarimizning boy merosini saqlovchi noyob kutubxona hisoblanadi.

Kutubxonani jihozlash va avtomatlashtirish, kitoblarni RFID texnologiyasi yordamida belgilash, ochiq fondni tashkil etish hamda elektron katalog orqali foydalanishni ta'minlash ushbu loyihaning zamonaviy texnologik yechimlari qatoriga kiradi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi loyihalari orasida muhim yo'nalishlardan biri markaz kutubxonasidir. Kutubxonada o'z konsepsiyasidan kelib chiqib, fondni shakllantirishda O'zbekistonda yetishib chiqqan olimu ulamolar va ular asos solgan ilmiy-ma'rifiy maktablar haqidagi manbalarni jamlashga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, O'zbekiston va xorijda nashr qilingan adabiyotlar, qo'lyozmalar hamda arxeologik yod-



gorliklar bilan kutubxona fondini boyitilgan. Yana bir muhim yo'nalish ko'rgazma loyihasi bo'lib, "Qog'oz – elektron kitob – sun'iy intellekt" nomli maxsus ko'rgazma kutubxona foyesida tashkil etiladi. Bu yerda kitob tarixining bosqichlari amaliy tarzda ko'rsatiladi: qadimgi qo'lyozmadan tortib, sun'iy intellektgacha!

Yangi xorijiy va milliy nashrlar ham kutubxona fondiga qo'shilib, zamonaviy elektron katalogga kiritilmoqda. Bu orqali o'quvchi o'ziga kerakli asarni tez va oson topa oladi. Arab, fors, turk, rus, hatto Yevropa tillaridagi ilmiy tadqiqotlar bir markazda jamlanishi esa, markaz kutubxonasining xalqaro darajadagi ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Madaniyat va san'at boshqaruvida YOSH RAHBAR KADRLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Madaniyat va san'at sohasida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilayotgani, bu jarayon doirasida yosh rahbar kadrlarga ehtiyoj kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Bugungi kunda yosh avlod orasidan yetishib chiqayotgan fidoyi rahbar kadrlarga qo'yilayotgan asosiy talablar va ular egallashlari lozim bo'lgan fazilatlar haqida mulohaza yuritish zarur. Birinchi galda, yosh rahbarlar zamonaviy boshqaruv ko'nikmalariga ega bo'lishlari talab etiladi. Bunda ularning sohada yuz berayotgan yangilik va o'zgarishlarga tez moslasha olishi, tashabbuskorlik, innovatsion g'oyalarni ilgari sura olishi muhim sanaladi. Yosh rahbar kadrlarga xos bo'lishi lozim bo'lgan fazilatlar ichida yangicha tafakkur, tashabbuskorlik, ochiqlik, mas'uliyatlilik, adolatparvarlik, odillikni alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Madaniyat va san'at sohasining mohiyati, avvalo, insonni barkamol qilib tarbiyalash, uning iqtidor va salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda xalqning ma'naviy boyligini oshirish bilan chambarchas bog'liq. Shu sababdan, ushbu sohani boshqarishda doimo yangilikka intiluvchi, kuchli kommunikativ qobiliyatga ega, erkin fikrlaydigan va jamoa bilan to'g'ri muloqot o'rnatadigan yosh rahbar kadrlarga ehtiyoj mavjud. Ular zamonaviy axborot texnologiyalarini bilishlari, menejment asoslarini puxta egallashlari, xorijiy tajribani o'rganishga intilishlari va uni mahalliy sharoitga moslashtirish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak.

Madaniyat va san'at sohasida faoliyat yuritayotgan yosh rahbar kadrlarga ilg'or kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan bir qatorda mustahkam ma'naviy, axloqiy pozitsiya ham xos bo'lishi kerakligi ta'kidlanmoqda. Bunda eng avvalo, vatanparvarlik, fidoyilik, halollik, ezgulik va or-nomus kabi insoniy fazilatlar asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Rahbar kadr ijtimoiy mas'uliyatni his qilishi, mustahkam iroda va qat'iyat namunasini ko'rsata olishi, jamoani bir maqsad sari yetaklash, har bir xodimga individual yondashish kabi muhim fazilatlarini namoyon qila olishi lozim.

Madaniy merosni asrab-avaylash, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash, yangi g'oyalarni ilgari surish, zamonaviy san'at yutuqlarini samarali joriy etish ham yosh rahbarlar oldidagi eng dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Yangi davr yosh rahbarlari uchun zarur bo'lgan fazilatlar orasida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik va mas'uliyatlilik eng yuqori o'rinda turadi. Madaniyat va san'at sohasining rivoji ko'p jihatdan rahbar kadrlarning o'z kasbiga sodiqligi, ijtimoiy burchini teran anglay

bilishi, ma'naviy barkamollikka intilishi, doimiy izlanishda bo'lib, o'z ustida ishlashi bilan belgilanadi.

Bugungi zamon rahbari har bir yangi loyihaning amalga oshirilish jarayonida zamonaviy yondashuvlarni qo'llaydigan, tezkor va aniq qarorlar qabul qiladigan, muammoli vaziyatlarda ijobiy yechim topa oladigan yetakchi bo'lishi shart. Madaniyat va san'at sohasining o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib, rahbarning kommunikativ qobiliyati, tashkilotchilik mahorati va muomala madaniyati ham nihoyatda muhim sanaladi.

Har bir holatda ham insoniylik, adolat va halollik mezonni yuqori darajada turishi, xalq manfaatini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yishi kerak bo'ladi. Rahbarning o'z jamoasi bilan ochiq va samimiy muloqot o'rnatish olishi, ish jarayonida demokratik tamoyillarni ustuvor deb bilishi, innovatsiyalarga ochiqligi, ezgu tashabbuslarni ilgari sura olishi sohaning yuksalishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, bo'lajak rahbarlar, o'z ustilarida muntazam ishlashlari, zamonaviy xorijiy tajribani chuqur o'rganishi, o'z bilim va malakalarini doimiy ravishda oshirib borishga intilishi zarur. Bu sohada faqatgina an'anaviy yondashuvlar, eskicha fikrlash qobiliyati emas, balki yangilikka bo'lgan o'chmas ishtiyoq, doimo rivojlanishga, o'z ustida ishlashga bo'lgan intilish muvaffaqiyatlar garovidir.

Madaniyat va san'at sohasi o'z oldiga jamiyatning estetik va ma'naviy tarbiyasini ta'minlashdek muhim vazifalarni qo'yadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur sohada faol ishlayotgan yosh rahbar kadrlardan talab etiladigan asosiy fazilatlarini sharhlash mumkin. Ularning eng avval, soha rivojiga o'z hissasini qo'sha

oladigan, xalq dardi va ehtiyojlaridan yaxshi xabardor bo'ladigan darajada chuqur bilimli bo'lishlari kerak. Ular tashabbuskor, halol, ishonchli, jamoaviy ishlashga layoqatli, o'z xarakterida qat'iyat va iroda, shuningdek, vaziyatga qarab murosaga borish fazilati bor insonlar bo'lishi lozim.

Madaniyat va san'at sohasida boshqaruv faoliyatini samarali tashkil qilish uchun, birinchidan, o'z sohasini puxta biladigan yoshlar zarur. Ular xalqaro tajribani amaliyotga joriy etishni o'rganib, zamonaviy boshqaruv vositalaridan kerakli darajada foydalanishi, innovatsion yondashuvlarni joriy etishda yetakchi bo'lishlari kerak. Yangicha ishlashga intiluvchan yoshlar madaniyat va san'at rivojiga katta hissa qo'sha oladilar. Shuningdek, samarali boshqaruv uchun yuqori mas'uliyat hissi, mustahkam kasbiy bilim va tajriba talab etiladi. Doimiy tarzda yangilana borayotgan jamiyatda boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish uchun rahbarning o'z ustida ishlashi, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga intilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Rahbar kadrlar o'z sohalarini puxta bilish bilan birga, insonparvarlik, saxiylik va yuksak e'tiqod sohibi bo'lishlari zarur. Shu bilan birga, tashabbuskorlik, ahil jamoani uyushtira olish, muammolarga ijodiy yondasha bilish, tashqi va ichki hamkorliklarni mustahkamlash, o'z sohasiga bag'ishlanish va yetakchilik salohiyatiga ega bo'lishlari lozim. Dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlarga, yangi texnologiyalarning jadal sur'atlarda taraqqiy etishiga moslashish, ularni puxta o'zlashtirish ham yosh rahbarlar uchun ustuvor fazilat sifatida ko'riladi.

Madaniyat va san'at sohasida rahbar kadrlarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: *faol boshqaruv qobiliyati, ochiq va haqqoniy muloqot o'rnatish, har doim adolatli bo'lish, xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishda faollik, yuqori tashabbuskorlik, kasbiy bilimlarning chuqurligi, xorijiy tillarni bilish, xalqaro tajribani o'rganish va tatbiq qilish, kommunikativ ko'nikmalar va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish.*

Rahbarlik faoliyatining o'ziga xos jihatlari shundaki, rahbar ko'rimli, so'zga boy,



NARGIZA SHODMONOVA,
“Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil
etish hamda boshqarish”
ta'lim yo'nalishi
4-bosqich talabasi

o'z fikrlarini to'g'ri yetkaza oladigan, xalq orasida hurmatga sazovor inson bo'lishi zarur. O'z sohasiga muhabbat, sadoqat va vatanparvarlik asosiy motivatsiya manbai bo'lib xizmat qiladi. Doimiy intilish va izlanish, o'z ustida ishlash, yangi bilimlarga ega bo'lish uchun harakat qilish yosh rahbarlar uchun asosiy me'yor sifatida talqin etiladi.

Madaniyat va san'at sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, unda faqat iqtidorga ega bo'lishning o'zi yetarli emas, balki sohani to'g'ri anglash, xalq ehtiyoj va talabidan yaxshi xabardor bo'lish, zamon bilan hamnafas harakat qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va san'at sohasi boshqaruvida yosh rahbar kadrlar eng avvalo, milliy va insoniy qadriyatlar mezonidan foydalanish, doimiy taraqqiyot va yangilikka intilish, sadoqatlik, halollik, ochiqlik, qat'iyat, ijtimoiy faollik, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish asosiy omil hisoblanadi. Bugun sohada olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar yosh rahbarlardan yanada yuqori saviya, kasbiy kompetensiya va ilg'or fazilatlarini talab etadi. Madaniyat va san'at sohalarida samarali boshqaruv tizimini yaratish, sohaning taraqqiyotini ta'minlash va xalq xizmatiga munosib rahbar bo'lish uchun har bir yosh rahbar kadr yuqorida sanab o'tilgan fazilat va kompetensiyalarni o'zida mujassamlashtira olishi lozim. Bu esa, jamiyatimiz ma'naviy salohiyati, estetik didi va kelajagi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Hikmat



MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

“Boshqa millatlarga qaralsa ko'rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur”.

“Ehtiyoji millat” maqolasi,
“Samarqand” gazetasi, 1913-yil

“Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga tobe' ekan, bizni ulamo bil'aks avomga tobe'dur? Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o'ttiz sana so'ngra yana yomonroq bo'lur, musulmonlik, ilm va odob ila qoim. Millat axloqi, fazl va hunar ila boqiy qolur”.

“Millatlar qanday taraqqiy etarlar?”
maqolasi,
“Samarqand” gazetasi, 1913-yil



DAVIRBEK ABDURAHMONOV,
"Dramatik teatr rejissyorligi"
yo'nalishi
2-bosqich magistranti



MURODILLA ASHRAFOV,
"Sahna va ekran san'ati
dramaturgiyasi" ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi



MARJONAXON XOLTOYEVA,
"San'at jurnalistikasi"
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Bolalik sog'inchi

Ey samo, imkoni bor bo'lsa,
Beg'ubor bolalikni qaytib ber.
Oqshomlar bag'ringda oy to'lsa,
Sen menga allalar aytib ber.

Shabboda jo'r bo'lsin mayliga,
Erkalab silasin yuzimni.
Sharqiroq soylarning mavjiga,
Ohista topshiray o'zimni.

Charog'on yulduzlar hattoki,
Uyqumda yoritsin tushlarni.
Uyg'onmas ekanman men toki,
Kuylashin eshitay qushlarni.

So'ng esa ularning parvozi,
Qalbimni umidga to'ldirsin.
Shodligu baxt to'la ovozi,
Dildagi g'ashlikni o'ldirsin.

Daraxtlar shivirlab jo'rttaga,
Ertaklar aytsalar qaniydi.
Birgina mana shu lahzaga,
Jonimni bersam ham arziydi.

Tafti ishq

Muhabbat tafti yo'q muzladi tanam,
Ichimni o'rtaydi hamon bir alam,
Nega men? Xususan, nega men emas?
Tutaman qaytadan qo'limga qalam.

Balki yozganlarim senga yetmaydi,
Qalbim isitishga, mehring yetmaydi,
Ancha vaqt o'tti-ki hanuz qorong'u,
G'urbat ko'lankasi hamon ketmaydi.

Balki men sen uchun hech kim, hech nima,
Shunda ham qilmadim bir bora "gina",
Mergandek o'tgan bu so'zlaring tinglab,
Parchadir ne qilay bu yurakkina.

Vaqt o'tar kun, oy, yil va hafatalar,
Qo'lingmas, qo'limda nozik taxtalar,
Bilganlar doimo menga aytarlar:
Bo'ldi qil, voz kechgin, deya niqtarlar.

Ammo kechmam sira sening sevgingdan,
Umidim bor hamon javob ishqingdan,
Turib kel iltimos, o'sha ko'shkingdan,
Bu xabar sengadir o'sha "do'stingdan"...

Bayrog'im

Yulduzdek nur bo'lar osmonga,
G'ururni baxsh etar insonga,
Qaddini ko'rsatib jahonga,
O'zbekning bayrog'i hilpirar.

Asraymiz yurakning qo'rida,
Kurashib sportning zo'rida,
Zafarda, yuksakda, to'rida,
O'zbekning bayrog'i hilpirar.



XUSNIDDIN G'OFUROV,
"Kutubxona axborot faoliyati"
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Sog'inch

Bilmam ich etimdan bir tuyg'u o'tar,
Bilmayman bu tuyg'u ne ekanligin,
Bilganim shudirki, bilganim aniq,
Onamning mehrini juda sog'indim.

Juda sog'indim onam diydorin,
Onamdan uzoqda qiynalar dilim,
Mayli barchasiga yumsam ham ko'zim,
Onamning mehrini juda sog'indim.

Sayoxat dardida yuribman kezib,
Axir ilm bilan yuksalar odam,
Ilm olmoqlikka intilib men ham,
Onamning mehrini juda sog'indim.

Tilimda aytaman balki bu dardim,
Ichimdan o'tadi his-tuyg'ularim,
Ichimdagi dardni aytolmasam ham,
Onamning mehrini juda sog'indim.



JAHONGIR SOBIRJONOV,
"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish" ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ustoz

Maktab davri ajoyib damlar,
Yeldek o'tdi jilov tutqazmay,
Bolaligim, sho'xligim bugun,
Xotiraga aylangan baxtlar.

Sinfdoshlar, darddosh ko'chalar,
O'z bag'riga tortayveradi,
Onam kabi bo'lgan ustozim,
Chin ilimga chorlayveradi.



Kipriklarga ingan baxt

Yoz kuni ufqda paydo bo'lgan qoramtir, ko'kish bulutlar tobora keng quloach yoydi, vodiy tabiatiga xos bo'lmagan issiq shamol inson dimog'iga begona hidni olib keladi. Muzaffar beparvo alfozda ko'zlari jovdiraydi, ter tomchilari peshonasidan ikki yanoqlari bo'ylab marjondek to'kiladi, lablarini biroz tishlab turdida ukasiga o'ychanlik va g'azab aralash gap qildi.

– Shaharda shu pulingga ikki-uch oylab mazza qilib yashaysan, yo'lkira, vaqt sarf qilib kelib nima qilarding, undan ko'ra o'sha ishlaringni, o'qishingni kemtik joylarini to'g'rilasang bo'lmaydimi?

Anvarning qoshlari chimirildi, ko'zlari namlandi.

– Aka, seni o'zimdand ortiq yaxshi ko'raman, onamni sog'indim, sen berayotgan pullarni ishlatgim kelmaydi, ularni yig'ib dadam va onam uchun arzigulik biror narsa olishni xohlayman, aka seni, vafot etgan bobomni, sochlariga oq oralagan onamni sog'indim. Muzaffar qo'lini “bilganingni qilmaysanmi”, degandek siltaganicha barvasta qaddini tik tutib ko'chaga odimladi. To'rt yil suvga tushgan barg donasidek oqdi-yu ketdi. Bugun Anvar talabalik pillapoyasidan lavozim kursilari tomon ko'tarilmoqda. Har daqiqa, har on unga dalda beruvchi, uni qo'llaguvchilari, akalari bo'ldi. Ularning ko'magi bilan o'qidi, mehnat qildi, mana endi o'zi ham akalarining yonida qo'shqanot bo'lish pallasi kelganini his qilyapti. Darvoza ochilib ko'chadan Anvarning onasi nabiralarini quchoqlab olgancha kirib keldi.

– Mening professor o'g'lim, ko'zimning qarog'i kelipti, bilmay ham qolibman, - deya o'ng qo'lida ko'tarib turgan Rizvonani yerga qo'ydi, keyin bolasini bag'riga bosdi, suyundi, onaizorning qalbi rohatlandi, hattoki ko'zlarida sog'inch yoshlari qalqidi. Har kimning ham bolasi safardan kelsin ekan, yuragi mehr taftiga to'la ona nabiralarini birin-кетин kelinning qo'liga topshirib, ochiq ayvondagi qalin qilib solingan ko'rpacha ustida miriqib dildan suhbatlashishdi, gap orasida rahmatli bobosini iztirob va sog'inish bilan yodga olishdi.

Anvar yaxshi dazmollanmagan oq ko'ylagining yuqori tugmasini yechib, hiyoil yengil tortdi, ko'ksiga shamol tegdi. Shu lahzada esayotgan issiq shamol unga jo'shqinlik baxsh etar, shivalab yog'ayotgan yomg'irning namiqqan hidi uning dimog'iga urilib bolalikdagi ilkis tuyg'ularni eslatib yubordi. O'shanda qum ustida o'tirib olgancha to'ptosh o'ynagan edi. Yana eslaganlari orasida onasining tandirdan endigina uzgan issiqqina jizzali nonlari, hamda katta hovlidan olib kelgan ta'mi yillar o'tsada unutilmaydigan qirmizi olmalarni eslab o'smirlik kayfiyati bilan onasiga tabassum qildi, shu alfozda onasiga uzoq tikilib qoldi, bolalik xotiralarini eslab

masrur holga tushgan bo'lsa, hozirgi hayotini, shahardagi betayin ulfatlarini tungi barlarda tongacha birga yurgan nozaninlarni o'ylab ko'ngli xiralashdi. Kafti bilan yuzini to'sganicha o'zini-o'zi aybladi, so'kinib yubormoqchi ham bo'ldi yolg'iz emasligini fahmlab lablarini tishladi. Beixtiyor otasi haqida o'yladi, ona mehrini qozonish oson, samimiy munosabat bilan biror jo'yali sovg'a onaga yetib ortadi, lekin ota mehrini qozonish... Buning uchun munosib farzand bo'lishingni o'zi yetmaydi, balki otangni yuksaklarga parvoz ettirishing, o'zga odamlar qarshisida muzaffarona yurishingni ko'rishi shart.

Uning otasi haqidagi xayollari miyasini shunday qamrab olgan ediki, yonidagi onasini lahzaga unutdi, cheksizlik tomon yo'naldi. Anvarning hozirgi holati Mohira opaga erish tuyuldimi,

– Anvar senga gapiryabman. Keyingi rejalarining qanday? Akalaring qishloqqa qaytsin, biz boshlagan ishga qo'shilsin, yaxshi pul topadi deyishgandi, ko'nmadim, seni o'qisin, o'z yo'lini endi topyapti dedim...

– Mohira opa “Endi nima qilmoqchisan?” degandek qaradi.

– Sizlarning xizmatigizni qilish, duolaringizni olish... Anvarning ko'zlarida porloq kelajak barqib turar, shu sababidan niyatlarini ayasiga aytmoqchi bo'ldi, biroz iymandi. Qishloqqa tun bostirib keldi, borliq arosatga cho'ma boshladi, lekin bu holat uzoq davom etmadi, yomg'irdan keyingi tarqoq bulutlarni oy shitob bilan yorib o'tdi. Soat tungi birga yaqinlashgan bo'lsada uxlay olmadi, boshini yostiq ustiga qo'yib son-sanoqsiz yulduzlarga tikildi, u ma'n'an ezilgan edi, hozirgi ahvoli, pulsizlik qiynog'idan, qarzi ko'payib ketganidan, do'stlari tashlab ketganidan, hattoki ishlari ham o'lda-jo'lda ekanligidan g'azabi keldi, ammo umid uchquni unga dalda berdi. U Yaratgandan umid qilsa, bir kun shamol tingani kabi hammasi iz-iziga tushib ketishini bilardi.

Subh, bomdodga aytilgan azon tovushidan ko'zlarini katta-katta ochdi, uy etagida dadasining namoz uchun tahorat olayotganini ko'rди, Anvar dadasi ishdan kelganida uxlab qolgan edi, hali-beri ko'rishmaganini bilib, o'rnidand turdi va yuz-qo'lini yuvdi, dadasi bilan salom-alik qildi, so'ng odatdagidek birga namozga turishdi. Anvar diqqat bilan dadasining ust-boshiga razm soldi, yuvilaverib urinib



IZZATILLO OLIMOV,
“Kutubxona-axborot faoliyati”
ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

ketgan ko'ylagiga, chang tegib eskirib ketgan shimiga, keyin ohori to'kilgan qora tufliga bir-bir qarab chiqdi.

– Dada issiqda ishlab charchab qolmayabsizmi? Mehr va qo'rquv bilan so'zlardi Anvar – Ochig'i sizlarga oxirgi payt yordam ham berolmayapman. Hatto o'qish, ish deb, shahardan beri kelmay qo'ydim...

– Hechqisi yo'q, mana akalaring bor, yashash yomon emas, sen o'qi, ilm o'rgan, shu akalaring qo'llab-quvvatlaganda o'qib ol. Ishda nima gap? Ayangdan eshitdim, qandaydir markazga ishga kiribsan? Hali-beri ishga kirish tugul, tayinli ish topmay ko'chada sang'ib yurgan Anvar quvlik qilib, ammo ming pushaymonlik bilan dadasining savoliga javob beradi.

– Hammasi joyida dada, darsdan so'ng biroz ishlagim keldi, shuning uchun chorsudagi kutubxonadan ish topgandim.

Ikromjon aka ich-ichidan suyundi, bolasining kelgusida yonida tirgak bo'lishiga ishondi, xursandligini o'g'liga bildirmaslikka urinarkan, yuzidagi kulish jiddiylikka o'zgardi. Anvar dadasi bilan o'tgan suhbatdan so'ng ayvondagi so'riga borib o'tirdi, xontaxta ostida quyoshda sarg'ayib qolgan, muqovasidan ajragan kitoblarni varaqlab o'qishga tutindi. Shu damda ichkaridan allaqanday, tushunib bo'lmay yig'i tovushini eshitdi va xavotirlanib eshik yoniga bordi. Anvar bildiki, onasi Mohira opa ibodatda edi. U Allohga farzandi uchun duo qilar, ko'p yig'laganidan kipriklarida baxt ko'zyoshlari qotib qolgan edi. Anvar o'yladi: Nahotki ayam mening ahvolimdan, ichimdagi o'tayotgan hislardan xabardor bo'lsa? Nahotki...

MUHAMMAD YUSUFning

“Do‘ppi” she‘rida

MILLIYLIK VA ZAMON RUHI

O'zbek xalqining yuragidan joy olgan shoir Muhammad Yusuf o'z ijodida milliy ruh, xalqona soddalik, vatanga mehr g'oyalarini o'ta samimiy tarzda kuylagan. Uning “Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar” nomli she'rida shoir milliy qadriyatlarning asta-sekin qadrsizlanib borayotganidan iztirob chekadi. Ushbu she'r jamiyatida milliylik, urf-odat va an'analar masalasiga jiddiy badiiy munosabat bildirgan eng ta'sirli asarlardan biridir.

Muhammad Yusuf “Do'ppi” nomli she'rida oddiy milliy bosh kiyim orqali butun xalqning ma'naviy holatini ifodalaydi. She'r boshidagi:

Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar,

Bir shoir, bir nosirdan boshqa, – satri hazil-mutoyiba bilan boshlangan bo'lsa-da, aslida chuqur ma'noga ega. Bu misrada shoir milliy kiyimga, milliy g'urur, iftixorga bo'lgan beparvolikni kinoya bilan tanqid qiladi. Uningcha, zamonaviy o'zbek

insoni tashqi ko'rinishida, turmush tarzida o'z ildizlaridan uzoqlashib bormoqda. “Sochlar silliq, qadam silliq” degan satrlar orqali, u zamonaviylik ortidan quvib, asl o'zligini yo'qotayotgan, milliylikni “eskilik” deb bilayotgan insonlarni nazarda tutadi. Shoirning:

Rost do'ppilar, yolg'on do'ppilar,

Kinolarda qolgan do'ppilar, – degan misralari o'ta ramziy mazmunga ega. Bu o'rinda u milliylikning faqat tashqi, soxta

shaklda namoyon bo'layotganini achchiq kinoya bilan ochib beradi. Ya'ni, bugungi kunda ko'pchilik uchun do'ppi – shunchaki bezak, tantanali tadbirlarda yoki sahnada kiyiladigan libosga aylangan. Aslida esa, shoir nazarida do'ppi bu xalqning or-nomusi, g'ururi, mehr-muhabbat, bir so'z bilan aytganda, milliy o'zlikning timsolidir. Muhammad Yusuf she'r oxirida:

Boshga loyiq do'ppi yo'qdir yo –

Bosh qolmadi do'ppiga loyiq, – deb yozar ekan, bu nafaqat estetik, balki falsafiy xulosa hamdir. Bu satrda shoir milliy qadriyatlarga befarq, ma'naviy jihatdan bo'shab qolgan zamonaviy inson obrazini yaratadi. Ya'ni, insonning boshida do'ppi bo'lishi uchun u avvalo shu bosh ya'ni tafakkur, ruh, yurak milliy qadriyatlarga munosib bo'lishi kerak.



ROZIYA RAVSHONBEKOVA,
“San‘at jurnalistikasi”
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi



“Baxtsiz kuyov” asari haqida

“Teatrshunoslik” yoʻnalishida sohaning yetuk olimlari: Mamajon Rahmonov, Muhsin Qodirov, Toshpoʻlat Tursunov, Teshaboy Bayandiyev, Tohir Islomov, Sotimboy Tursunboyev, Muhabbat Toʻlaxoʻjayeva, Sarvinoz Qodirova, Omonulla Rizayev kabi koʻplab ustozlarning oʻzbek teatri tarixi, teatr dargʻalari hamda sahnaga qoʻyilgan asarlar haqidagi ilmiy va tahliliy maqolalarini oʻqigach angladimki, oʻzbek teatri haqiqiy oʻzligimizni anglashga koʻmak beradigan noyob sanʼat turidir.

Mazkur maqolamizda, oʻz davrining ogʻriqli mavzularini pʼesarlarida koʻrsata olgan Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” asarini imkon qadar tahlil qilishni maqsad qildik.

Abdulla Qodiriy (1894-1938) oʻzbek adabiyoti tarixida realizm maktabining ulkan namoyandasi sifatida eʼtirof etilgan. Uning ijodiy uslubi oʻta sodda, tili esa, xalqchil boʻlishiga qaramay, u har bir jumlagacha chuqur psixologik maʼno yuklay olgan. Abdulla Qodiriyning uslubi qudrati, avvalo, uning oʻtkir kuzatuvchanligi va betakror tilining boyligi orqali namoyon boʻladi. U jamiyatdagi illatlar ikkiyuzlamachilik, sohta obroʻparastlikni toʻgʻridan-toʻgʻri tanqid qilmasdan, qahramonlar xarakteri va turli voqealarda tasvirlaydi.

Muallifning “Baxtsiz kuyov” fojiali asari drama-turgiyadagi yuksak mahoratini koʻrsatadi. Ayniqsa, davrdagi ogʻriqli illatlardan biri boʻlgan toʻy marosimining salbiy oqibatlarini, maishiy muammolarni koʻrsatish bilan yoritiladi. Asar voqealari ikki yoshning nikoh toʻyi sababli rivojlanib boradi, lekin bu toʻy oddiy baxt uyi emas, balki bosh qahramon Solih uchun baxtsizlikka aylanadi. Asosiy ziddiyat kuyovning shaxsiy xohishi, mustaqil fikri yoʻqligi bilan atrofdagilar amakisi Abdurahim, qaynotasi Fayziyning bosimi, obroʻ uchun kurash va eski urf-odatlar oʻrtasida kechadi.

Abdurahim Solihning amakisi. Barcha voqealar uni ishtirokisiz maʼlum bir darajada taqdirlarni tubsiz jarlikka tushishiga sabab boʻladi, deb oʻylayman. U jiyaning ahvolini bila turib baland dorga osilib, Fayziydek “manqur” shaxsga sigʻinadi. Mansab va boylikka berilgan

odamligini bila turib, Solihni ham qoʻyarda-qoʻymay uning qiziga uylanishiga rozi qiladi.

Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, Fayziy boylik, ortiqcha dabdababozlik, sarf-harajat, manmanligi bois, toʻy soliqlarini koʻpaytirish, uning ustiga atrofdagilarning turli gap-soʻziga qolmaslik uchun oʻz manfaatlarini ustun qoʻygani oʻquvchini eʼtiborini tortadi.

Asarda yana bir ijobiy qahramonlardan biri Ellikboshi. U – aqlli, fikrlari aniq boʻlib, uning toʻy maslahatida ortiqcha dabdababozlikka qarshi bildirgan eʼtirozlari asosli edi. Ammo uning hamtavgʻi domlarning nazar-pisand qilmagani, nafsoniyatiga tegishli soʻzlarni aytgani bilan toʻqnashuv va qarama-qarshi xulosalar bildiriladi. Oliyjanob Ellikboshining urinishlari behuda boʻladi. Domlarning loqaydlik qilgani, Fayziyga koʻproq yonbosgani, balki uni xohishlariga xayrixohlik qilib, oʻz vazifasini unutgani ham yetim bir yigitning taqdiriga salbiy taʼsir qiladi. Uning shaxsiy fikri yoʻqligi, “toʻn kiyish maqsadida” boyning gapini doim tasdiqlashi asar voqealarini boyitishiga xizmat qiladi.

Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” asari – oʻzbek adabiyotidagi hayotiy va ogʻriqli hikoyalardan biridir. Yozuvchi asarda oddiy bir oilaning holatini tasvirlar ekan, aslida butun jamiyatdagi muammoni koʻrsatadi. Bu asarda inson erkinligi, tanlov huquqi, hurmat masalalari oʻrtasida kechayotgan ziddiyat badiiy tarzda yoritilgan. Asarning bosh gʻoyasi baxtni majburlab boʻlmasligi, har bir inson oʻz hayotini oʻzi tanlashi kerakligidir. Dramaturg oʻz davridagi jamiyatda keng tarqalgan majburiy turmush, ota-onaning



**SOJIDA ACHILDIYEVA,
“Teatrshunoslik” taʼlim yoʻnalishi
1-bosqich talabasi**

soʻzi qonun boʻlgan anʼanalarga qarshi chiqadi. U ogʻriqli tasvirlarda katta ijtimoiy dardni ifodalaydi.

Asarning tili shunchalik jonli va obrazliki, undagi keskinlik, badiiy mahorat asarning umrboqiy boʻlishini taʼminlaydi. “Baxtsiz kuyov” asari shunchaki pyesa emas, balki shaxsiyatning qadrsizlanishiga qarshi yozilgan jiddiy, ijtimoiy, psixologik dramadir. Bu asar bizga haqiqiy baxtni tashqi koʻrinishlar ortidan emas, balki ichki erkinlik, mustaqil shaxsiyat va vijdon erkinligidan izlash kerakligini eslatib turuvchi sanʼat namunasidir. Kuyovning baxtsizligi har bir avlod uchun ogohlantirish boʻlib xizmat qiladi. Baxtsiz kuyov oʻz nomi bilan uni baxtsiz hayotga kirayotganini bildiradi.

Muallifning qalami oʻtkir ekanligini va har bir voqea, personajlar xatti-harakatlarida bilishimiz mumkin. Muallif koʻtargan mavzu erkinlik va insoniy baxt masalasi bugun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Aksincha, bu asar har bir oʻquvchiga oʻz hayoti haqida oʻylashga, tanlovining toʻgʻriligini baholashga undaydi. Shu bois, “Baxtsiz kuyov” bu faqat oʻtgan zamon hikoyasi emas, balki bugungi jamiyat uchun ham oʻgit va ogohlantirishdir. Yozuvchi asar orqali bizga shuni uqtiradi, agar inson oʻz hayot yoʻlini toʻgʻri va aql-idrok bilan tanlay olmasa, u hech qachon chin maʼnoda baxtli boʻla olmaydi. Shuni ham aytish joizki, “Baxtsiz kuyov” fojaviy asari teatr sahnalarida 1915-yil 4-noyabr va 1919-yil 14-mart sanalarida tomoshabinlar eʼtiboriga havola etilgani bilan ham ahamiyatli. Asar oʻquvchini kengroq fikrlab, oʻz hayotini qadrlashga, bilim olishga, oʻz insoniy huquqlarini anglab yetishga hamda baxt uchun kurashga chorlaydi. Ushbu asarni har bir oʻquvchi mutolaa qilishini tavsiya etaman.

MUHAMMAD YUSUFning “Doʻppi” sheʼrida

MILLIYLIK VA ZAMON RUHI

◀ **Boshlanishi 7- betda**

Bu oʻrinda shoir tashqi belgidan ichki maʼnaviylikka oʻtadi va asl “doʻppi” – milliy oʻzlik, yurakdagi vatan tuygʻusi ekanini taʼkidlaydi.

Sheʼrning badiiy-uslubiy xususiyatlari ham eʼtiborga loyiq. Muhammad Yusuf xalqona soʻzlashuv uslubini, oddiy soʻzlarni ishlatgan holda ularga chuqur falsafiy maʼno yuklay oladi. Uning satrlarida taqrir, tashbih va kinoya vositalari oʻta tabiiy tarzda uygʻunlashgan. “Doʻppi” kiyimay

qoʻydi odamlar” degan takror esa asarda ohangdorlik, ritm va xalqona kayfiyat hosil qiladi. Sheʼr soddaligi bilan birga teran fikr, milliy ogʻriq va zamon tanqidini oʻzida mujassam etadi.

“Doʻppi” sheʼri orqali Muhammad Yusuf xalqni hushyorlikka, oʻz ildizini unutmaslikka, milliy qiyofasini asrashga chaqiradi. Uning fikricha, milliylik faqat kiyimda emas, balki insonning qalbida, tafakkurida, dunyoqarashida boʻlishi kerak. Agar inson oʻz millatining timsoli boʻlgan oddiy bir doʻppini ham qadrlamasa, u asta-

sekin oʻzligini yoʻqotadi. Shu bois, shoir doʻppi orqali xalqni oʻzligini eslashga, qadriyatlarini ardoqlashga daʼvat etadi.

Muhammad Yusuf ijodi oʻzbek xalqining yuragiga yaqin boʻlishining sababi, u har doim xalq tili bilan gapiradi. Shoir sheʼrda murakkab falsafiy gʻoyani ham oddiy soʻzlar bilan ifodalaydi. “Doʻppi” sheʼri ham ana shunday soddalikda buyuk maʼno mujassam asar. Bu sheʼr bugun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan, chunki undagi ogohlantirish, milliy oʻzlikni asrashga daʼvat – har bir zamon uchun

dolzardir. Muhammad Yusuf “Doʻppi” orqali milliy ruh, xalqona iftixor va zamonaviy beparvolikni qarama-qarshi qoʻyadi. Sheʼrning kuchi uning soddaligi va samimiyatidadir. Shoir xalq tili bilan millatning eng ogʻriqli nuqtasiga tegadi, shu bois, mazkur sheʼr bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf “Doʻppi” nomli sheʼrida milliylikni saqlash, xalqning ruhiy birligini asrash, insonning ichki dunyosidagi befarqlik va begonalashuviga qarshi badiiy soʻz quroli bilan kurashgan. Sevimli shoir uchun doʻppi bu nafaqat bosh kiyim, balki xalq qalbining timsoli, oʻzbeklikning belgisidir.

Muassis: Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti Bosh muharrir Baxtiyor YAKUBOV		Tahrir hayʼati: Hamdam ISMOILOV, Oybek DAVLATOV Muharrir: Dilnoza QURBONOVA Sahifalovchi: Abdugʻani SODIQOV	Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulugʻbek tumani, Yalangʻoch mavzesi, 127 A uy. Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.	Oʻlchami – A3, hajmi 4 bosma taboq. Gazeta 28.11.2025-yilda topshirildi.
		www.dsml.uz; nashriyot@dsml.uz	Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda roʻyxatga olingan.	Gazeta elektron koʻrinishda havola etilmoqda